

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI DARSLARIDA 4 K
MODELIDAN FOYDALANISH

Xolova Lola Anvarovna

*Toshkent shahar Sergeli tumani**237-maktab informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchisi*

Annotatsiya. *Hozirgi kunga kelib, kompyuter savodxonligi madaniyatning muhim belgisiga aylanib ulgurdi, u har bir insonga qayerda, qaysi hududda ishlamasin zaruratga aylandi. Shu sababli ta'lim jarayonida, xususan, ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalari fanini zamon talablari asosida o'qitish dolzarb mavzuga aylandi. Ushbu maqolada informatika va axborot darslarida 4 K modelidan qanday foydalanish kerakligi tushuntirildi.*

Kalit so'zlar: *axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), smart ta'lim, smart - ta'lim, elektron ta'lim, smart elektron ta'lim.*

Metod - grekcha "Metodos" so'zidan olingan bo'lib, "izlanish" yoki "bilish yo'li", "nazariya", "ta'limot" ma'nosini anglatadi. Ta'lim metodini (usulini) - ta'lim oluvchim va ta'lim beruvchining ma'lum maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga va tartibga solingan yo'l-yo'rig'i sifatida ta'riflash mumkin.

Ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan informatika va axborot texnologiyalarining fan sifatida o'ziga xosligi, uning zamonaviy fanlar tizimida tutgan o'rni va ahamiyatidan, hozirgi jamiyat hayotidagi ahamiyatidan kelib chiqqan holda "Informatika va AT" fanini o'qitishning maqsadlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- o'quvchilarda kompyuter savodxonligini shakllantirish;
- o'quvchilarda axborotga ishlov berish, uzatish va undan foydalanish jarayonlari haqidagi bilimlar asoslarini mustahkam va ongli o'zlashtirib olishlarini ta'minlash;
- o'quvchilarga dunyoning zamonaviy ilmiy ko'rinishini shakllantirishda axborot jarayonlarining ahamiyatini, jamiyatning rivojida yangi axborot va kommunikatsion texnologiyalarning ahamiyatini ochib berish;
- kompyuterlardan ongli va ratsional foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.

Yangi o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi avlod darsliklari asosida ta'lim oladi. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri - ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganidir. Ya'ni bu tamoyilda quruq ma'lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o'qish/yozishni o'rgatish bilan cheklanilmaydi. O'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganadi.

4K yondashuvi o'z nomi bilan 4 ta tamoyilni o'z ichiga oladi:

Kollaboratsiya: Darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

Kommunikativlik: O'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

Kreativ fikrlash: O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Yangi innovatsion yondashuvni O'zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda 4K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi.

PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan davlatlar ta'limida o'quvchilarda "4K"ni o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti.

Ayni paytda, oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining 4 K xalqaro modeli bo'yicha o'quvchilarda kristizim ko'nikmasini shakllantirish metodikasini tarkib toptirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'qitishdan ko'zlanadigan maqsad bu davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim va ko'nikmalarini o'quvchiga yetkazishdan iborat. Qachonki o'quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o'quvchi malaka oshirish uchun mo'ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina o'qitish muvaffaqiyatli kechdi deb hisoblasa bo'ladi. Ma'lumki, ta'lim olish (ma'lumot olish) jarayoni - bu ma'naviy va aqliy qobiliyatlarni tizimli rivojlantirib borish, bilim va tushunchalarni shakllantirish va olingan bilimdan foydalana olish qobiliyatini tarkib toptirishdan iborat jarayondir. Bu jarayon ta'lim oluvchining o'zi orqali yoki boshqa biron ta'lim beruvchining ko'magida amalga oshirilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R.H. Ayupov, G.R. Boltaboeva. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. T.:TMI.
2. Hasaboyev J va boshqa. Pedagogika fanidan izohli lug'at.-Toshkent,2009.
3. Jabborova O. Boshlang'ich ta'limning innovatsion texnologiyalari.-Toshkent,2023